

## TARIX

1. Mark Antoniy (Qadimgi Rim) faoliyati bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) Brut bilan ittifoq tuzdi va Oktavian boshliq respublika tarafdarlarini tor-mor etdi; 2) Misrga kelib, Misr malikasi Kleopatraga uylandi;  
 3) nikoh sovg'asi tariqasida Kleopatraga Rimning sharqiy provinsiyalarini (viloyatlarini) berdi; 4) Senatdan imperator unvonini oldi.  
 A) 2, 3    B) 1, 4    C) 1, 3    D) 2, 4
  
2. Quyidagilarni tahlil qilib, nuqtalar o'rniiga mantiqan mos keluvchi javobni toping.  
 1) Karolinglar sulolasi – Buyuk Karl;  
 2) Yuan sulolasi – Xubilay;  
 3) Tan sulolasi – ...;  
 4) Saksoniyaliklar sulolasi – ... .  
 A) Lyu Ban; Xilperik  
 B) Chju Yuan Chjan; Vatslav  
 C) Li Yuan; Genrix I  
 D) Xuloku; Xlodvig
  
3. Berilgan voqealardan qaysi biri boshqalariga nisbatan oldinroq sodir bo'lgan?  
 A) Prussiya qirolligining tashkil topishi  
 B) AQSHda Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi  
 C) Rossiyaning imperiyaga aylanishi  
 D) Fransiyada ikkinchi imperiyaning qaror topishi
  
4. Quyidagilardan Antanta harbiy ittifoqi tarkibiga kirgan davlatni aniqlang.  
 A) Germaniya    B) Turkiya  
 C) Avstriya-Vengriya    D) Fransiya
  
5. Quyida keltirilgan ma'lumotlar (voqealar) ... ga aloqador.  
 – 1881-yilda Tunisning bosib olinishi;  
 – 1891-1896-yillar davomida Gvineya, Senegal, Madagaskar va Mavritaniyaning bosib olinishi;  
 – 1912-yilda Marokash ustidan o'z protektoratini o'rnatishi.  
 A) Rossiya mustamlakachilik siyosati  
 B) Fransiya mustamlakachilik siyosati  
 C) Buyuk Britaniya mustamlakachilik siyosati  
 D) Germaniya mustamlakachilik siyosati
  
6. Quyidagilardan Yaponiyaning 1889-yilgi Konstitutsiyasiga **nomuvofiq** bo'lganlarini belgilang.  
 1) imperator parlamentni chaqirish, ochish, tarqatib yuborish, qonunlar o'rniga oliv farmonlar chiqarish huquqlarini o'zida saqlab qoldi; 2) bosh vazir qo'shirlarning Oliy bosh qo'mondoni bo'ldi; 3) imperator urush e'lon qilish, sulh tuzish huquqlarini o'zida saqlab qoldi; 4) Vazirlar Kengashi faqat bosh vazirga hisob berar edi; 5) Vazirlar Kengashi faqat imperatorga hisob berar edi; 6) parlamentning barcha qarorlari Xalq Kengashida muhokama qilinishi kerak edi.  
 A) 2, 3, 6    B) 1, 3, 5    C) 1, 4, 5    D) 2, 4, 6
  
7. Fashizm siyosiy oqim sifatida qaysi davlatda paydo bo'lgan?  
 A) Yaponiyada    B) Italiyada    C) Fransiyada  
 D) Buyuk Britaniyada
  
8. Quyidagi qaysi davlat XXI asr boshida Kopengagenda (Daniya) bo'lib o'tgan uchrashuvda Yevropa Ittifoqiga qabul qilingan?  
 A) Turkiya    B) Slovakiya    C) Ozarbayjon  
 D) Gruziya
  
9. Quyida keltirilganlardan qaysilarida davlat-shaxs-voqealari mos ravishda berilgan?  
 1) AQSh – Franklin Ruzvelt – mamlakat Ikkinci jahon urushiga qo'shildi; 2) SSSR – V.I.Lenin – Sovet Ittifoqi nomidan Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lgani to'g'risidagi aktni imzoladi; 3) Ispaniya – F.Franko – 1939-yil sentabrda neytralitet haqida dekretni imzoladi; 4) Fransiya – J.Shirak – Germaniya bilan hamkorlikda La-Mansh bo'g'ozi ostidan temiryo'l tonnelli (Yevronnel) qurildi; 5) Tojikiston – Imomali Rahmon – Mamlakatda fuqarolar urushi nihoyasiga yetdi.  
 A) 1, 3, 4    B) 2, 3, 4    C) 1, 3, 5    D) 2, 4, 5
  
10. Tarixiy voqealar to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) "Atirgullar inqilobi" yuz berdi; 2) Rossiya va Fransiya o'rtasida Tilzit shartnomasi imzolandi; 3) harbiy ittifoq – "Uchlar ittifoqi" tuzildi (Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiya);  
 4) "Iyul monarxiysi" quladi.  
 A) 2, 1, 3, 4    B) 4, 3, 1, 2    C) 2, 4, 3, 1  
 D) 4, 2, 3, 1

- 11.** "Diktatura" atamasining izohi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
- A) xalqdan ajralib qolgan, hukmron guruh manfaatlarini himoya qiluvchi ma’muriyatçilik boshqaruv tizimi  
 B) jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotini harbiy maqsadlarga bo‘ysundirish siyosati  
 C) bir davlatning o‘zga mamlakatlar hududi va bozorini egallab olish maqsadida o‘z siyosiy va iqtisodiy ta’sirini yoyishga qaratilgan siyosati  
 D) hech qanday cheklovlar siz, hukmron sinfnинг kuchiga tayanib ish yurituvchi hokimiyat
- 12.** Quyidagi ma’lumotlar qaysi tarixiy shaxs haqida ekanligini aniqlang.  
*"U XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Kolumbiya davlati prezidenti lavozimini egalladi. Hindularga solinadigan o‘lponni bekor qildi. Yirik pomeshiklarning yerlarini musodara qilish to‘g‘risidagi qonun loyihasini ishlab chiqdi. Ispaniyadan ozod bo‘lgan barcha Amerika Respublikalari konfederatsiyasini tuzish uning orzusi edi".*
- A) Porfirio Dias    B) Migel Idalgo  
 C) Emiliano Sapata    D) Simon Bolivar
- 13.** VI asrning 80-yillari oxirlarida Turk xoqonligi G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘linib ketgan. Sharqiy turk xoqonligi tasarrufiga qaysi hududlar kirgan?
- 1) Janubiy Sibir; 2) Yettisuv; 3) Sharqiy Turkiston; 4) Urxun havzasi; 5) Shimoliy Xitoy; 6) Sirdaryo havzalari.
- A) 1, 3, 5    B) 1, 4, 5    C) 2, 3, 6    D) 2, 4, 6
- 14.** 1503-yilda Shayboniyxon Toshkent va Shohruxiya shaharlarini qo‘lga kiritganidan so‘ng egallagan hududlar hokimligini o‘zining qarindoshlariga taqsimlab bergen.  
 Quyidagilardan kimlar qaysi hududlarga hokim etib tayinlanganligi mos ravishda ko‘rsatilgan javobni toping.
- 1) Ko‘chkunchi Sulton; 2) Suyunchxo‘ja Sulton;  
 3) Mahmud Sulton.  
 a) Toshkent; b) Buxoro; c) Andijon;  
 d) Turkiston.
- A) 1-d, 2-a, 3-b    B) 1-d, 2-b, 3-c  
 C) 1-a, 2-d, 3-c    D) 1-a, 2-b, 3-d
- 15.** Quyidagi bandlar mazmuniga oid yakuniy hukmni aniqlang.
- I. Turkmanlarning bo‘ysundirilishi bilan Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olishning uchinchi bosqichi nihoyasiga yetdi.  
 II. 1876-yilda O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududida Turkiston general-gubernatorligi vujudga keldi.  
 III. 1868-yilda Samarqandda fon Kaufman va amir Muzaffar o‘rtasida shartnoma imzolandi.
- A) I – to‘g‘ri; II – to‘g‘ri; III – noto‘g‘ri  
 B) I – noto‘g‘ri; II – to‘g‘ri; III – to‘g‘ri  
 C) I – to‘g‘ri; II – noto‘g‘ri; III – noto‘g‘ri  
 D) I – noto‘g‘ri; II – noto‘g‘ri; III – to‘g‘ri
- 16.** 1990-yil 1-noyabrda "O‘zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga (1978-yil qabul qilingan) o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunga ko‘ra, . . . .
- 1) Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi; 2) O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi;  
 3) "Oliy Majlis" deb ataluvchi 250 deputatdan iborat bir palatali parlament shakllantirildi;  
 4) O‘zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov ayni bir vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi bo‘ldi.
- A) 2, 4    B) 1, 3    C) 2, 3    D) 1, 2
- 17.** Mustaqil O‘zbekiston tarixi bilan bog‘liq qaysi ma’lumotlar to‘g‘ri?
- I. 2016-yil 14-dekabrdan Abdulla Aripov O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib tasdiqlangan.  
 II. Mamlakatimiz Bosh vaziri tashabbusi bilan 2018-yilda "O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi.  
 III. Hokimlar tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanmaydi.  
 IV. 2016-yil dekabrdan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan.
- A) I va IV    B) II va III    C) I va II  
 D) III va IV

- 18.** Tarixiy voqealar to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda berilgan javobni toping.  
 1) ming urug‘i vakillari Farg‘ona vodiysida hokimiyatni o‘z qo‘llariga oldilar; 2) Turkiston general-gubernatorligi tuzildi; 3) Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Turkiston viloyati tashkil etildi; 4) Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasida Gandimiyon shartnomasi imzolandi.
- A) 1, 3, 2, 4    B) 2, 1, 3, 4    C) 4, 1, 2, 3  
 D) 3, 1, 4, 2

- 19.** Quyidagilarni tahlil qilib, nuqtalar o‘rniga mantiqan mos keluvchi javobni toping.  
 O‘rta asrlarda Afrika qabilalari:  
 1) tuareqlar; 2) galla; 3) ...  
 A) anglo-saks    B) frank    C) tigre  
 D) polyak


- 20.** XIX asr oxiriga kelib Germaniya imperiyasi ...  
 A) iqtisodiyoti qoloq davlatga aylanib qoldi  
 B) iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Yevropada birinchi o‘rinni egalladi  
 C) AQSh dan o‘zib ketib, dunyoning birinchi sanoat davlatiga aylandi  
 D) Gabsburglar sulolasi qo‘liga o‘tdi

- 21.** Quyidagi qaysi davlat XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya modeli asosida kapitalistik taraqqiyot yo‘lidan rivojlanayotgan hamda yuqori natijalarga erishayotgan ikkinchi to‘lqin davlati hisoblanadi?  
 A) Hindiston    B) Pokiston    C) Malayziya  
 D) Eron

- 22.** Sovet hokimiyati Turkiston o‘lkasida yuritgan "harbiy kommunizm" siyosatining mohiyati to‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang.
- A) sanoat korxonalari o‘z egalariga qaytarib berildi  
 B) oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini taqsimlashni davlat o‘z qo‘liga oldi  
 C) ishlab chiqaruvchilar va hunarmandlarga erkinliklar berildi  
 D) dehqonlarga o‘zi yetishtirgan mahsulotni bozorda erkin sotish huquqi berildi


- 23.** To‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.
- A) Hindiston – seysmografning ixtiro qilinishi  
 B) Rim – ilk bor Olimpiya o‘yinlarining o‘tkazilishi  
 C) Yunoniston – kompasning kashf etilishi  
 D) Xitoy – qog‘ozning ixtiro qilinishi
- 24.** Quyidagi qaysi fan ilk o‘rta asrlarda Yevropa maktablarida o‘rgatilgan «yetti erkin san‘at»ning kvadrium bosqichida o‘qitilmagan?
- A) arifmetika    B) astronomiya    C) musiqa  
 D) grammatika

- 25.** Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 3, 6    B) 4, 6    C) 2, 5    D) 1, 3


- 26.** Quyida berilgan muallifning asarlarini toping.



- A) 1, 4    B) 2, 3    C) 2, 4    D) 1, 3

27. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.


**XX asrning birinchi yarmi**



- a) Ikkinchı jahon urushida mag'lubiyatga uchradi; b) SSSR bilan 10 yil muddatga o'zaro urush qilmaslik to'g'risida Molotov-Ribbentrop paktini imzoladi; c) Xitoyning Manchjuriya provinsiyasini bosib olib, bu yerda Manchjou-Go qo'g'irchoq davatini tuzdi; d) Ikkinchı jahon urushi davrida Moskva va Stalingrad ostonalarida bo'lib o'tgan janglarda mag'lubiyatga uchradi; e) Vashington konferensiyasi natijasida Shandun viloyatini Xitoyga qaytarishga majbur bo'ldi; f) "Atlantik xartiya"ni imzoladi.

- A) I-b, d; II-c, e; III-a    B) I-b, c; II-d, e; III-f  
C) I-b, e; II-a, c; III-f    D) I-b, e; II-c, d; III-a

28. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Misr (a), Tunis (b) va Liviya (c) ustidan hukmronlik qilgan davlatlar xaritada qaysi raqamlar ostida berilgan?



- A) a-4, b-1, c-3    B) a-2, b-1, c-5    C) a-6, b-3, c-4    D) a-1, b-3, c-5

29. Quyidagi jadvalda voqealarning natijasi o‘zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

Nº	Voqealarning Natija
1.	1358-yilgi Jakeriya qo‘zg‘oloni
2.	Dehqonlarni to‘lov evaziga qaramlikdan ozod etishning tezlashishi
3.	1929-yilning 24-oktabrida Nyu-York fond birjasida inqirozning boshlanishi
4.	XIII asrda Movarounnahr va Xorazmning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi
5.	Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Banokat va Xo‘jand shaharlarining taraqqiy etishi
6.	Safaviylar sulolasini hukmronligining barham topishi
7.	Minoy sivilizatsiyasining barbod bo‘lishi

- A) 1, 2, 4    B) 2, 3, 4    C) 2, 4, 5    D) 1, 3, 5

**30.** Quyidagi jadvalda ma'lumotlar to'g'ri moslashtirilgan qatorlarni toping.

Nº	Davlat	Voqeа	Hukmdor
1.	Qadimgi Misr	Falastin, Finikiya va Suriyani istilo qilish boshlandi	Yaxmos
2.	Angliya	"Buyuk ozodlik xartiyasi" imzolandi	Richard I Sheryurak
3.	Rossiya	Tilzit shartnomasi imzolanib, Fransyaning Yevropadagi barcha g'alabalari tan olindi	Nikolay I
4.	Somoniylar davlati	Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama shu maxsus binoga joylashtirildi	Nasr II
5.	Fransiya	Qirol mulklerining kengayishi umumdavlat boshqaruva tashkilotlari: Qirol kengashi, Oliy sud va Moliya boshqarmasining tuzilishi bilan yakunlandi	Filipp II
6.	Afg'oniston	Mamlakatda yopiq siyosat olib borildi, chet elliklar, ayniqsa, yevropaliklarning mamlakatga kirishi taqiqlandi	Amir Abdurahmon

- A) 1, 2, 3    B) 2, 4, 6    C) 1, 3, 5    D) 4, 5, 6